

FORS TILI SO'Z TURKUMLARINING GAZETA MATNLARIDAGI FUNKSIONAL VA USLUBIY XUSUSIYATLARI

Dilfuza Rafukjanovna AHMEDOVA

Filologiya fanlari doctori, dotsent

Eron-afg'on filologiyasi kafedrasи

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ И СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЧАСТЕЙ РЕЧИ ПЕРСИДСКОГО ЯЗЫКА В ГАЗЕТНЫХ ТЕКСТАХ

Дилфуза Рафукжановна АХМЕДОВА

Доктор филологических наук, доцент

Кафедра ирано-афганской филологии

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

FUNCTIONAL AND STYLISTIC FEATURES OF PERSIAN PARTS OF SPEECH IN NEWSPAPER TEXTS

Dilfuza AKHMEDOVA

DSc, Lecturer

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan dilakhmedova@mail.ru

UDC (UO'K, УДК): 811.22.1: 81.2-5-98

**For citation (iqtibos keltirish uchun,
для цитирования):**

Ahmedova D.R Fors tili so'z turkumlarining gazeta matnlaridagi funksional va uslubiy xususiyatlari// O'zbekistonda xorijiy tillar.— 2022. — № 2 (43). — B. 108-126.

<https://doi.org/10.36078/1652968036>

Received: February 12, 2022

Accepted: April 17, 2022

Published: April 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Hozirgi kunda tilshunoslikda tilni funksional-uslubiy aspektida o'rganish jadal rivojlanib borayotgan yo'nalishlardan sanalib, til birliklarining turli funksional uslublar sathida qo'llanishini tadqiq etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Butun dunyo ijtimoiy-siyosiy vaziyatining o'zgarib borishi natijasida matbuot vositalarining ahamiyati oshib borgani sari, uni chuqur o'rganish talabi ham oshmoqda. Publitsistik matnlar, xususan, gazeta matnini lingistik tahvil qilishga funksional yondashuvda til birliklarining semantikasi va shakli, ularning matn hosil qilishdagi vazifasidan kelib chiqib o'rganiladi. Ushbu funksiyani bajarishda til birligining semantikasi va shakli uni gazeta matnini vujudga keltiruvchi vositaga aylanadi. Eronshunoslikda ham so'z turkumlari va ularning ma'noviy guruhlarini funksional uslublar doirasida qo'llanishi tahlili alohida ahamiyat kasb etsa-da, bu borada maxsus tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb hisoblanadi. Fors tili gazeta-publitsistik uslubini tadqiq etish zamонавиј ероншуносликнинг мухим ю'налышлардан саналади.

Kalit so'zlar: stilistika, funksional vazifalar, so'z turkumlari, publitsistik uslub.

Аннотация. Язык — одно из сложнейших явлений человеческого общества. Определенные языковые средства и стили, которые мы постоянно используем в общении, образуют систему. В связи с непрерывным развитием языка наблюдается изменение целей и задач различных функциональных стилей,

стилистически невообразимое разделение речи как инвариантной догмы. Поэтому теоретически не существует общепризнанных критериев стилистической дифференциации стилей. Однако деление на функциональные стили речи представляло собой не только законное, но и необходимое, если оно сделано с учетом динамики процессов, происходящих в естественном языке и обществе. Предметом исследования является газетно-публицистический стиль речи. Газетно-публицистический стиль имеет специфические особенности и основная задача материалов этого стиля — доставить определенную информацию с определенных позиций. Таким образом достигается желаемый эффект для читателя или слушателя. Содержание газеты и информационных сообщений отличается тем, что здесь речь идет о событиях, доступных для широкого понимания слоев неспециалистов, прямо или косвенно связанных с их жизнью и интересами.

Ключевые слова: стилистика; газетно-публицистический стиль; части речи; глагол; текст; тематическая группа; глаголы речи; информативность; функциональные особенности частей речи.

Abstract. One of the actively developing directions in linguistics is language learning in a functional-stylistic aspect. Special attention is paid to the study of the use of language units in different functional styles. Publicist texts are studied according to the functional approach to linguistic analysis of newspaper texts, based on semantics and form of language units, and their function in text formation. In implementing this function, the semantics and form of the language unit are transformed into a means of generating newspaper text. The analysis of the application of parts of speech and their semantic groups within functional styles is particularly important in Iranistics. The study of the newspaper-publicist style of Persian is the most important direction of modern Iranistics

Keywords: stylistics; newspaper style; qualitative adjectives; relative adjectives; verbs; text; thematic group; verbs of speech; informative; functional features of verbs.

Kirish. Jahon tilshunosligida hozirgi kunda tilni funksional-uslubiy aspektida o‘rganish jadal rivojlanib borayotgan yo‘nalishlardan sanalib, til birliklarining turli funksional uslublar sathida qo‘llanishini tadqiq etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Butun dunyo ijtimoiy-siyosiy vaziyatining o‘zgarib borishi natijasida matbuot vositalarining ahamiyati oshib borgani sari, uni chuqur o‘rganish talabi ham oshmoqda.

Eronshunoslikda Eron matbuoti borasida olib borilgan ilk izlanishlar sirasiga E. Braun tadqiqotlarini keltirish mumkin. Ingliz eronshunosi "Mashruta davri Eron matbuoti va adabiyoti tarixi" (17, 67) kitobida o‘scha davr jurnalistikasi, ayniqsa, Hindistonda chop etilgan Eron gazetalari haqida batafsil ma’lumot beradi. Eron matbuoti bo‘yicha izlanishlar olib borgan Nosiriddin Parvin Eron jurnalistikasi tarixi, uning o‘ziga xos jihatlarini yoritib bergen (18). Ja’fari Xonaqoh (19), Mas’ud Barzin (20) kabi Eron olimlarining tadqiqotlari ham Eron matbuoti tarixiga bag‘ishlangan ishlar qatoriga kiradi. Muhammad Rizo Isfandiyoriy, Zahro Abzoriy, Rabobe Mo‘stahgi, Farzone Xo‘dobande, Alirezo Bo‘nyodilarning (7) maqolalari ham Eron gazetalarining o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishga qaratilgan. Tojik eronshunosligida Mulloyev Sharif (8), R.Mexdi (6), rus eronshunosligida A.Abbasogli (1) tadqiqotlarini maqola mavzusi doirasida amalga oshirilgan ishlar qatoriga kiritish mumkin. A.Suxorukov hozirgi eron matbuotida yevropeizm va amerikanizmlar o‘rniga Fors tili akademiyasi tomonidan tavsija etilgan muqobilarning qo‘llanishini

Eron gazetasi misolida yoritishga harakat qilgan (13). Ye. Gladkova "Некоторые аспекты общественно-политической лексики современного персидского языка (на материале выступлений М.Ахмадинежеда в ООН)" nomli maqolasida M.Ahmadinejodning xalqaro maydonda so‘zlagan nutqlari mantiqan shakllangan va asoslangani, bu esa fors tili siyosiy diskursini o‘rganishda qiziqish uyg‘otishi haqida to‘xtalgan (2).

Mavzuning maqsadi fors tili gazeta matnlarida so‘z turkumlarining tarkibi, ularning funksional-uslubiy xosliklarini aniqlashdan iborat.

Usullar. Gazeta elementlarini tavsiflashda analiz, gazeta matnlaridan tanlab olingen misollarni izohlashda interpretatsiya, leksemalarning rang-barangligini o‘rganish jarayonida tavsifyi, qiyosiy, miqdoriy, umumlashtirish, semantik-uslubiy tahlil, shuningdek, kontekstual va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi.

Dunyoda ijtimoiy-siyosiy vaziyatning o‘zgarib borishi, o‘z navbatida, jamiyatning yangiliklarga bo‘lgan talabini oshiradi. Hozirgi kunda hayotimizda matbuot vositalarining ahamiyati oshib borgani sari, ularni chuqur o‘rganish talabi ham oshmoqda. Gazeta tili matn birliklaridan tashkil topadi. Ushbu birliklar, o‘z navbatida, stilistikating o‘rganish ob’ekti sanaladi.

Hozirgi kunda Eron tilshunosligida stilistikaga oid qator tadqiqotlarni kuzatish mumkin (21). Bu asarlarni o‘rganish jarayonida XX asrning oxirigacha bo‘lgan davr mobaynida stilistika bo‘yicha yaratilgan asarlar asosan adabiy stilistika, ya’ni adabiy janrlar stilistikasiga bag‘ishlanganining guvohi bo‘lish mumkin. XX asr oxiri —XXI asr boshlarida Eron tilshunosligida stilistikaga yangicha yondashuv kuzatiladi.

Fors tilida "uslub" گن‌ه گېۋىھ پېۋىك terminlari bilan ifodalanadi. Eron tilshunosligida uslubning turli tasniflari mavjud. Uslub tasniflarda yakdillik bo‘lmasa-da, tahlil qilish jarayonida ular orasida umumiylilik mavjudligi, bir uslub turli nomlar bilan atalgani yoki bir uslubning bir necha guruhlarga ajratilgan tasnifini ko‘rish mumkin. Uslubni ajratishda so‘zlovchi va tinglovchi munosabati, ularning ijtimoiy farqlanishi, zamon va makonda joylashuvi asos qilib olingen.

Publitsistik uslub siyosat va ba’zi ijtimoiy sohalarda qo‘llanuvchi uslub bo‘lib, ikki asosiy vazifa, ya’ni informativ va ta’sir ko‘rsatish funksiyalarini bajaradi (3, 265). Fors tilida publitsistik uslubni rasmiy, ilmiy, badiiy va og‘zaki uslub elementlarini o‘z ichiga qamrab olishidan kelib chiqib, uni funksional uslublar sistemasida eng ochiq uslublar qatoriga kiritish mumkin.

Publitsistik uslubda gazeta tili alohida o‘rin egallaydi. Zero, gazeta va publitsistika bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Gazetadagi har bir publitsistik maqola o‘ziga xos ijtimoiy masalalarni ko‘tarib chiqishi yoki jamiyatdagi turli yangiliklarni badiiy ifoda etishi mumkin (16, 20).

Hozirgi kunda Eronda gazeta tiliga bo‘lgan qiziqishning ortib borayotganini bu sohada amalga oshirilgan qator tadqiqotlarda ko‘rish mumkin (22). Izlanishlarni o‘rganish jarayonida ularda qisqalik, terminlarni kamroq qo‘llash, to‘g‘ri bayon uslubini tanlash hamda hozirgi kunda fors tilining sofligini saqlab qolishga intilish kuzatiladi. Shu bilan birga, olimlar gazetaning yoshlari tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishiga to‘xtalib o‘tadilar. Tahlillar natijasida eron gazetalarida aniq axborot yetkazish, til sofligi, tarbiyaviy vazifalar asosiy o‘rinni egallashi aniqlandi.

Gazeta janrlari informatsion, analitik va badiiy-publitsistik janrlarga bo‘linadi (3, 266). Eron tilshunosligiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, unda gazeta janrlari tasnifi mavjud emasligi ayon bo‘ladi. Unda faqat gazeta matnlarining turlari ajratiladi. Masalan, Ahmad Giloni Eron gazeta matnlari turlari sifatida مصالح، باتازى اخبارى گزارش، "xabar", "reportaj", "bosh maqola", مصاچ،

“intervyu” (قىرعى بېخشەي, sog ‘ligni saqlash, ekologiya, oila, fan, kitob, ko’rgazma, film va h.k. mavzusiga bag ‘ishlangan maqola)larni keltiradi (23,117). Hasan Zulfiqoriy Eron matbuoti 4 qolip — خبر xabar, reportaj, intervyu va مصاچە قىلادان maqoladan tashkil topganini ta’kidlaydi (24, 29).

Eron gazetalari tematikasi ijtimoiy-siyosiy yangiliklar, mahalliy yangiliklar, Eron va madaniyat, jahon yangiliklari, sport va h.k. ruknlarni o‘z ichiga oladi. Umuman, Eron gazetalari ruknlari tematikasini besh guruhg‘a ajratish mumkin. Bular: ijtimoiy-siyosiy, iqtisod, sport, madaniyat va adabiyot. Kuzatuvlar natijasi fors tilida so‘z turkumlarining gazeta matnlarida o‘ziga xos xususiyatlari ijtimoiy-siyosiy, iqtisod va sport ruknlarida namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi.

Gazeta matnlarida o‘zining asosiy ma’nolari bilan bir qatorda ifodalagan qo‘sishma ma’nolaridagi turli tumanlik ot va sifat so‘z turkumlarining funksional chegaralanishga olib keladi. Eron gazeta matnlari doirasida otlarning konnotativ ma’noda qo‘llanish holatlari kuzatiladi va bu holat turli kontekstlarda namoyon bo‘ladi. Masalan “**疆**” frontning asl ma’nosи “jang maydoni” bo‘lib, *bir vaqtning o‘zida bir necha faoliyat olib borilayotgan hudud, muayyan maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy kuchlar ittifoqi* kabi ma’nolarga ham ega. Mazkur leksik birlik gazeta matnlarida harbiy ma’no bilan bir qatorda, siyosiy ma’noda ham qo‘llanadi. So‘zning qaysi ma’noda qo‘llanishini kontekst orqali aniqlash mumkin.

طن و ظیقند می مرگب هس بازان و هستند، آن فلی د طام م ممات که ها، جهه از عکی طب
کنند می محدود رات هاجم [E.24373:6]

Meditrina — doimo qurol-aslaha yetishmovchiligi mayjud bo'lgan, askarlar esa o'lim bilan kurashib, hujumni qaytarib turadigan frontlardan biridir. Misolda  front so'zi o'zining asl ma'nosida qo'llangan bo'lsa-da, unda vrachlar askarlar, dori-darmon esa qurol-aslaha bilan ifodalangan holda ko'chma ma'nosi anglashiladi.

Gazeta matnlarida ۰۵۷ so‘zi semantikasining kengayishi kontekstual to‘ldirish natijasi sifatida namoyon bo‘ladi: siyosat va tijorat sohasidagi o‘zaro munosabat implitsit ravishda harbiy harakatlar bilan bog‘liq dushmanona munosabat sifatida negativ baholanadi. Xuddi shunday implitsit salbiy ekspressiya اتش armiya neytral so‘zi orqali quyidagi kontekslarda namoyon bo‘ladi.

S.R.3912:11] مکن د می رش ساله هر گلی، اگر گھن می ک ھلن د مقامات، اتش

Amaldorlar armiyasi xuddi parazit organizm kabi yiliga ko'paymoqda

امانور ҳай атш، در اتش *armiya* — 1. *Davlatning qurolli kuchlari majmuasi*; 2. *Frontdagি qurolli kuchlarning bir qismi ma'nolarini anglatса, ko'chma ma'noda umumiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi ko'p sonli odamlar ma'nosini ifodalaydi.* مانور ھای اتش، در اتش *armiya* ملنت آمدن حال در مالى Yuqoridagi keltirilgan misolda *qo'llangan armiya* so'zi، در اتش *Armiyada moliyaviy manyovrlar kutilmogda* jumlasida *qo'llangan holat* bilan taqqoslansa، ularda kontekst orqali kuchaytirilgan "ko'psonilik" va "boshqalar hisobiga yashovchilar" ma'nosи anglashiladi. Tahvil qilingan otlarning semantik-uslubiy ma'nolari boshqa uslublarda ham namoyon bo'lsa-da، ana shu ma'nolarning birmuncha kengaygan holda ifodalanishida gazeta matnlari tilining imkoniyatlarini alohida ta'kidlash lozim.

Gazeta matnlarida onomastik qatlamning eng ko‘p uchraydigan guruhini antrononim va toponimlar tashkil qiladi. Gazeta matnlarida qo‘llangan antrononimlar uchun shaxsning jismoniy, ruhiy, biologik, ma’naviy, intellektual tomonlari, uning ijtimoiy, milliy mansubligini asosiy omil sifatida ko‘rsatish mumkin. Antrononimlardan faqat voqeа-hodisalar izohlovchisi yoki biror nutq egasi sifatida emas, o‘quvchini ishontirish, unga ta’sir ko‘rsatish va o‘quvchi

e'tiborini tortish maqsadida foydalanish usulidir. Bunda asosan mashhur insonlar ismlaridan foydalaniladi. Masalan, eron gazeta matnlarida Saddam Huseyn, Tramp (biz tadqiq qilgan manbalar davrida Borak Obama), Isroil bosh vaziri va Saudiya qiroli ismi salbiy ottenkani berishda qo'llanadi. Ular qo'llangan maqlolalar vatanparvarlik ruhidagi bo'lib, mana shu antropomimlar ma'lum ma'noda o'quvchiga ta'sir ko'rsatish, milliy g'oyani targ'ib va tashviq qilish vazifasini bajaradi. Gazeta matnlarida davlat rahbarlari, vazirlar, tashkilot rahbarlari, deputatlar, sportchilar, adiblar, oddiy kishilar ism-familiyalarini anglatib keluvchi antropomimlar qo'llanishi gazeta publisistik uslubining yana bir o'ziga xos jihatlaridandir.

Geografik onimlar yuz berayotgan hodisalarni nomlash orqali informatsion xarakterga ega bo'ladi. O'zining semantik faolligidan toponim gazeta publisistik uslubining ma'lum matnlarida o'quvchiga emotsiyonal ta'sir etuvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi (9, 80). Mamlakat nomi ma'lum davlatlarning tarixiy taqdiri haqida eslatma berish uchun xizmat qiladi. Natijada ma'lum mamlakat nomi ramziy xususiyat kasb etadi. Masalan, Afrika mamlakatlari asosan qashshoqlik ramzini anglatса, arab davlatlari boylik, hashamat ma'nosida qo'llanishini kuzatish mumkin.

بلن'd صدای بآ نور در کس یج چه اگر چهی، نسخه به میوط ج اسپاتگنه هر آن ها چهی، بهش دن تبھ لبرایت لاش استس وابی ول وح ساده رس د می نظر به، کوندن می صبحت ۲۵، ۱۰) فست همان فن قدریجی ه

Bu haqda hech kim baland ovozda gapirmasa ham, Chili versiyasi, sodda va savodsiz bo'lib chiqti. Chili bo'lishiga intilib, ular Nigeriyaga aylandilar: o'sha korrupsiya, o'sha neft. Ushbu misolda Chili qattiqqa'l tuzum sharoitida ham xo'jalik faoliyatini tashkil eta olgan va shu yo'l bilan iqtisodiy o'sishga erishgan davlat timsolida gavdalangan. Nigeriya orqali esa obrazli tarzda yer osti boyliklariga ega bo'lishiga qaramay, amaldorlarning ochko'zligi tufayli mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlay olmagan davlat tasvirlangan.

Ta'kidlash lozimki, gazeta matnlarida "poytaxt nomi — mamlakat nomi" modeli asosidagi an'anaviy metonimik ko'chish ko'p uchraydi. Siyosiy matnlarning o'ziga xos jihat shundaki, ularda poytaxt nomlarini anglatuvchi atoqli otlar ko'p hollarda o'sha mamlakatni ifodalash uchun qo'llanadi. Masalan, ۲۵، ۷) بگفت داد، نجات داعش اش غال هست از بخادرات مران طبک مبه اش اربالصبا

Alsabog' Tehrон Bog'dodni ISHIDdan qutqarganiga ishora qilib dedi جumasida qo'llangan تمران **Tehrон** va بخداد **Bag'dod** shahar nomi sifatida emas, balki **Eron** va **Iraq** davlati timsolini aks ettirgan.

Ot son kategoriyasida funksional chegaralanish sezilmaydi. آن ها ko'plik qo'shimchalari barcha uslublarda qo'llanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, garchi آن ko'plik qo'shimchasi o'rniغا ها ko'plik qo'shimchasini qo'llash grammatik jihatdan qabul qilingan holat bo'lsa-da, gazeta matnlarida bunday holat deyarli kuzatilmaydi. Buni gazeta matnlarida yuqori uslub belgilari namoyon bo'lishi bilan asoslash mumkin. Bu esa آن ko'plik qo'shimchasida ها ko'plik qo'shimchasiga nisbatan rasmiylik ottenkasi kuchliroq ekanini ko'rsatadi. Gazeta matnlarining o'ziga xos uslubiy jihatlaridan biri unda arab ko'plik qo'shimchalari va siniq ko'pligi keng qo'llanishida ham ko'rindi.

"Eron matbuoti, zamonaviy ommaviy axborot vositalari o'zlashmalarga juda boy ekani" (4, 17) ta'kidlanadi. Hozirgi kunda tilni o'zlashmalardan tozalashga qaratilgan til siyosatining olib borilishiga qaramay, Eron zamonaviy gazeta leksikasi g'arb tillaridan o'zlashmalar hisobiga boyib borayotganini kuzatish mumkin. Bu jihat hozirgi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi katta o'zgarishlar bilan asoslanadi. Gazeta matnlarida g'arb tillariga xos o'zlashmalarning qo'llanishi tahlil qilinar ekan, ular asosan forsiy so'zlarga dublet sifatida voqelanishi aniqlandi. Hozirda fors tiliga ilm, tijorat, siyosat va

iqtisod sohalariga oid o'zlashmalarning ommaviy axborot vositalari, xususan, gazeta matnlari orqali kirib kelish jarayoni eron tilshunoslari tomonidan ijobiy qabul qilinmasligining guvohi bo'lish mumkin. Lekin, nazarimizda, jamiyatda yuz berayotgan turli voqe-a-hodisalar bilan tanishtirish jarayonida, mualliflar xorijiy tillardagi so'zlarga qisqa vaqt ichida dublet variantni topib, xabarni aniq taqdim etish imkoniga ega emaslar.

Gazeta orqali yetkazib berilayotgan xabarlar o‘zining kompressiyasi bilan ajralib turadi. Kompressiya esa abbreviaturalarga xos jihat. “So‘z yasalishining abbreviatsiya usuli eron tilshunosligi uchun XX asrning ikkinchi yarmida kirib kelgan yangi til hodisasi hisoblanadi. Dastlab eron matbuotida lotin yozuvidagi o‘zlashma abbreviaturalar, vaqt o‘tishi bilan sof forscha initsial abbreviaturalar ham vujudga kela boshladi” (12, 77). Fors tili gazeta matnlari tahlili jarayonida abbreviaturalar, asosan, iqtisod va siyosatga oid maqolalarda qo‘llanib, aksariyat, xalqaro tashkilot nomlari qisqartirilgan shakli berilishining faolligi kuzatiladi. Abbreviaturalar gazeta matnlarining asosiy vositalaridan biri hisoblanishi, ularning qo‘llanish sohasi, axborot berish vazifasi, aniqlik va qisqalik kabi xususiyatlari, abbreviaturalarni publisistik uslubga xos leksik vosita sifatida talqin etish imkonini beradi.

Gazeta matnlarida sifatlar uslubiy jihatdan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, davriy matbuotda jurnalistlar maqola tayyorlash jarayonida o‘zining uslubini yaratishga urinadilar va bu jarayonda o‘z uslubiga xos sifatlardan foydalanish holatlari ko‘zga tashlanadi. Ma’lum bir voqe-a-hodisalar emotsiyal bo‘yoq dor vositalar bilan boyitilgan bo‘lsa yanada qiziqarli bo‘ladi. Biror ma’lumotni obrazli yetkazishda muallif albatta sifatlardan foydalanadi.

Tub va yasama sifatlarning uslubiy imkoniyatlari gazeta matnlarida har doim ham bir xil emas. Gazeta matnlarida tub sifatlardan ko‘ra yasama sifatlarning qo‘llanishi faol. Buni hozirgi kundagi turmush tarzining jadal rivojlanishi, yangi so‘z va tushunchalar paydo bo‘lib borayotgani, bularni ifodalash va aniqlashga yangi vositalar zarurati mavjudligi bilan asoslash mumkin. Gazeta matnlarida sifatlarning voqelanishi borasidagi yana bir jihat ularda badiiy yoki og‘zaki uslubda keng ishlataluvchi sifatlarning kam yoki umuman qo‘llanmasligidir. Misol uchun, biror shaxsning belgi-xususiyatini ifodalovchi *مەھرۇبون* *mehribon*, *شۇچىرىلى* *chirolyi*, *شۇچىلى* *chirolyi*, maza bildiruvchi *مەزۇر* *sho‘r*, *شۇچىرىن* *mazali*, *شۇچىرىن* *shirin*, kishilarning jismoniy belgilarini anglatuvchi *قارى* *qari*, *لاغر* *ozg‘in* kabi sifatlar gazeta matnlarida deyarli qo‘llanmaydi.

Sifatlar denotativ va konnotativ ma'nosida baholash komponentining mavjudligi sababli ular belgi va baholashni ifodalash aspektlarini o'zida mujassamlashtiradi. Baholash, emotsiya, ekspressiya konnotatsiyaning teng huquqli komponentlari sifatida asosan ko'p ma'noli so'zlar semantik strukturasida keng tarqalgan, chunki ular asosan ko'chma ma'noda namoyon bo'ladi. Sifatlar leksik ma'no strukturasidagi murakkablik va o'ziga xoslik ularning ko'pma'noliligida namoyon bo'ladi. Ko'p ma'noli sifatlar ma'nosining anglashinuvida otlarning ta'siri muhim.

سلام — *tani sog'*, *sog'lom*, *foydali*, *toza*, *normal*, *to'g'ri*. Gazeta matnlari mazkur sifatning *sog'lom* fiziologik belgi ma'nosida qo'llanishi nofaol bo'lib, asosan, ko'chma ma'noda qo'llanishi kuzatildi. Gazeta matnlarida uning رقیبیت سلام موای سلام آب سلام امنیت خدات *sog'lom raqobat*, سلام toza سلام toza suv, سلام havo, سلام foydali سلام ovqat سلام kabি birikmalar سلام tarkibida qo'llanishi faol. Shu bilan birga, gazeta matnlarida سلام sifatining antonimi سلام posog'lom ham uchraydi.

بنی اس‌ال رقبلت درب‌لک‌ها روال‌که کرده وارد بـلک‌هابه لقادران مهش هم‌ركزی‌بانک خود مالی شرطی ط م و ظ دبوج و دنیاس امل‌یوض عجتکار مزد حوزه در مم ملت‌ش ده باعث‌یک‌هگر (برودن) ۲۵، ۱۰) اسلی‌یاس امل‌یی به روبلک‌ها

Markaziy bank hamisha banklarning nosog ‘lom raqobatga intilishi to ‘lov sohasida tartibsizlikning kelib chiqishi va banklar moliyaviy holatining tartibdan chiqib ketishigasabab bo ‘lishini tanqid qilib kelgan.

— گىر — iliq, issiq, qizg ‘in, jo ‘shqin, do ‘stona kabi ma’nolarni anglatib keladi. Mazkur sifatning gazeta matnlarida qo ‘llanishidagi o ‘ziga xoslik shundaki, u ikki mamlakat o ‘rtasidagi iliq munosabatlarni ifodalashda keng qo ‘llanadi. Bu sifat ishlatilgan birikmalar, asosan, Eron va ba ‘zi xorijiy mamlakatlar o ‘rtasidagi aloqlar, xorijiy davlat rahbarlari tashrifi yoritilgan maqolalarda voqelanishi ma ‘lum bir shakldagi birikmalar tarkibida qo ‘llanishi jarayonida klishega aylangan holatlar mavjud.

(سىنەدلىقابا طران گىرم رېلەت مەلۇفىگەر، سەلەقەدىت ھاى 25,6)

Hukmron kuchlar Eronning Afrika davlatlari bilan iliq aloqalariga qarshi.

Oxirgi vaqtarda gazeta leksikasida siyosiy-timsol ma ‘no kasb etgan sifatlarning keng qo ‘llanishini kuzatish mumkin. Gazeta tili yuz berayotgan voqe-a-hodisalarga operativ munosabat bildirish xususiyatiga egaligini inobatga olsak, unda ba ‘zi ranglar semantikasi transformatsiyasini kuzatish mumkin. Ular siyosat, iqtisod, biznes, ommaviy axborot vositalari sohalari bilan bog ‘liq. Rang ma ‘lum emotsiyonal kayfiyatni vujudga keltiruvchi simvolik fon sifatida namoyon bo ‘ladi. Shu bois, siyosiy partiylar ranglardan ta ‘sir etuvchi timsol hamda ularni ajratib turuvchi belgi sifatida foydalanadilar. Rang simvolikasi hozirgi kundagi siyosiy tendensiyalarni ifodalaydi. Masalan, Ukraina, Gruziya, Qirg ‘izistonda yuz bergen siyosiy inqirozlar natijasida to ‘q sariq, pushti, baxmal ranglar siyosiy ma ‘no kasb etti. Bu ranglarning oxirgi vaqtida yangi konnotatsiyalarga ega bo ‘lgan holda qo ‘llanishi ko ‘p kuzatiladi. Rangli inqiloblarning ommaviy norozilik namoyishlari tushunchasida qo ‘llanishi ommalashdi. Gazeta matnlarida sport terminologiyasiga oid birliklarning ishlatilish holatlari ham mavjud. Ma ‘lumki, sariq rangli kartochka ayrim sport turlarida ogohlantirish sifatida qo ‘llanadi. Quyidagi misolda esa sariq karta olish orqali deputatga ogohlantirish berish ma ‘nosi anglashiladi.

زىرىدىكارت مەلۇف، راي ۱۱۴ بانھەت در نېبودكىرساز لىھسە آن در فەلىپەلخ ھاى گۈفت (25,12)

Foniyning javoblari majlisda yordam bermadi va u 114ta qarshi ovoz bilan sariq karta oldi.

Qizil rang asosan siyosiy va tashviqot maqsadida qo ‘llanib, odamni qat ‘iylik, biror ishni qilishga undovchi rang bo ‘lishi bilan birga, xavf-xatardan ogohlantirish ma ‘nosini ham anglatadi. Yashil rangning tabiat va ekologiya bilan bog ‘liq kontekstlarda faol qo ‘llanishi aniqlandi. Rang bildiruvchi sifatlar borasida bir jihatga ahamiyat qaratish lozim. Havoning tozalik darajasi ma ‘lum ranglar bilan belgilangan. Fors tilida ham ana shu darajani ifodalashda belgilangan ranglar mavjud. Bu ko ‘rsatkich, ayniqsa, Tehron shahri havosi sofligi ko ‘rsatkichini belgilashda qo ‘llaniladi va bu ko ‘rsatkichlar gazeta matnlarida ham o ‘z aksini topadi.

Ommaviy axborot vositalari tili jamiyatda yuz berayotgan yangiliklar, o ‘zgarishlar aks topgan tilni keng ommaga taqdim etadi. Yuz berayotgan yangiliklar tilda yangi so ‘zlarning yuzaga kelishiga extiyoj tug ‘diradi. Shu nuqtai nazardan, so ‘z yasalishining mavjud usullari orqali yasalgan sifatlar gazeta matnlarida keng qo ‘llanadi. Sifatlarning grammatic formalari, xususan, yasovchi qo ‘shimchalarda ham ma ‘lum uslubiy chegaralanish mavjudligini sezish mumkin. Sifat yasovchi qo ‘shimchalarining asosiy qismi umumiste ‘moldagi birliklar bo ‘lib, so ‘zlashuv uslubida faol ishlatilsa-da, دار بىلە، بىندەكابى affiks va poluaffikslarning publitsistik uslubda birmuncha faolligi seziladi.

فەن اورى و دەلىشنىڭ قال مە خارجى و لەخلىقىدىگىزمان سەرەطە و روپىختى دەرىجەن (25,10) بىود مۇئەرەللەيىجىن بازار ھاى ئىچاد در مە و

Shu bilan birga, ichki va tashqi qudratli sarmoyadorlar, fan va texnologiyalar kirib kelishi hamda xalqaro bozorlarning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatdi.

Prefikslar ishtirokida yasalgan sifatlar ichida **юз** inkor yuklamasi yordamida yasalgan sifatlar gazeta matnlarida qo'llanishi faolligi bu so'zlar tarkibidagi **юз** yuklamasida publitsistik uslubga aloqador chegaralanganlik mavjudligi bilan izohlanadi.

ش دستبه ایهت، سورای در غیرعلنی شبستی درس-سویه امور در ملل سازمان نهان ده
(25,6) کردندیق ادسدرویه ملکرات روند درس عربی عربستانگ ارش ایهه های از

Suriya bo'yicha BMT vakili Xavfsizlik Kengashining yopiq majlisida Saudiya Arabistonini Suriya bo'yicha muzokaralarga to'sqinlik qilishini qattiq tangid ostiga oldi.

Fors tilida غور inkor yuklamasi ئىنkor yuklamasiga sinonim safatida qo'llanadi. Lekin gazeta matnlarida غور inkor yuklamasi ishtirokida yasalgan sifatlarning mahsulдорligini kuzatish mumkin. Bu holat غور inkor yuklamasida rasmiylik ottenkasining kuchliroq ekanligi bilan asoslanadi. Buni inkor yuklamalari uslubiy jihatlarining namoyon bo'lish holati sifatida talqin qilishga asos bo'la oladi.

Гинкор ўзлами билан юртсан сифаттар атоним жуфтлик шаклида юртсаннан озига хос жиҳатини назаралади.

وکوتاه راکارهای شد، تیه جمهوری سیاست‌خواه ایرانی که هژه‌کهنه‌گزارش در پرداخت‌های گنبدی شکل هفده مه شدن مسدود نظر به را طاییدستور لایحه عمل و بدل نمدت (25,6) ملن تکرده از اینه خود دولتی و دولتی دستگاههای مه در خبرنیه عارف

Prezident uchun tayyorlangan maxsus qo'mita hisobotida qisqa va uzoq muddatli strategiyalar, barcha davlat va nodavlat tashkilotlarda rasmiy to'lovni shakllantirishdagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan ko'rsatmalar taqdim etilgan.

Yasama sifatlar ichida eng sermahsuli *nisbiy yoy* qo'shilishi orqali yasalgan sifatlar ekanligi ma'lum bo'ldi. Gazeta matnlarida *nisbiy yoy* qo'shilishi orqali yasalgan sifatlar misolida birinchidan, ayni usul sifat yasashning eng qulay usullaridan biri sifatida talqin qilinishi mumkin. Ikkinchidan, bu sifatlar Eronning dunyo siyosat sahnasida tutgan o'rni, mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat, milliy mafkuraning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Buni *yadroviy*, *پرسېكەمىيەتى* *anksiyadan keyingi davrga oid* kabi sifatlarning qo'llanishida kuzatish mumkin.

To'plangan materiallar tahlili natijasi kishilik olmoshlarining stilistik imkoniyatlari olmoshning boshqa turlariga nisbatan keng ekanligini ko'rsatdi. Ma'lumki, gazeta sahifalarida yoritiluvchi maqlolar asosan siyosiy-ijtimoiy mavzuga doir bo'lib, ularni shakllantirishda yuqori yoki rasmiy uslub qonun-qoidalariga rioya qilishga urinish kuzatiladi. Mabodo, shunday xarakterdagi matnlarda olmoshlar tushirilsa, uslubiy g'alizlik yuzaga kelishi mumkin. Demak, gazeta publisistik uslubi spetsifikasini saqlab qolishda kishilik olmoshlarining alohida o'rni mavjud.

Fors tilida kishilik olimoshlarining izzat-ikromni ifodalovchi ekvivalentlari mavjud. Yu.Rubinchik bunday shakllarning qo'llanishi fors tili uslubiy imkoniyatlarini yanada kengaytirishi haqida to'xtalib, ularning vujudga kelishiga jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik sabab bo'lganini ta'kidlaydi. Kishilik olmoshlarining bunday ekvivalentlari turli uslublarga xos bo'lib, kamshitish va ehtirom ma'nosini ifodalaydigan turlarga bo'linadi (10, 171). Bunday shakllarning kishilik olmoshlari o'rmini bosa olishi ularning olmoshlar kabi ma'no anglatish xususiyatiga ega ekanligi bilan asoslanadi. Kishilik olmoshlarini ekvivalentlari bilan solishtirib o'rganilganda kishilik olmoshlarining uslubiy neytral, ekvivalentlarning esa konnotativ ma'noga egaligi aniqlanadi (15, 9).

من men olmoshi gazeta matnlarida qo'llanishi jihatidan eng nofaol olmoshlar qatoriga kiradi. Bu olmoshga sinonim sifatida احقر جىڭىر، چاڭرىپىن دە olmoshlar qatoriga kiradi. Bu olmoshga sinonim sifatida احقر جىڭىر، چاڭرىپىن دە so'zleri qo'llaniladi. من men olmoshi o'rnida bu so'zlarni qo'llash obrazlilik va ta'sirchanlikni ifodalasa, ularning o'rniga من men olmoshi qo'llanishi tilning funksionalligi nuqtai nazaridan buning aksini ifodalashi mumkin.

Publitsistik uslub, shu jumladan, gazeta uslubi rasmiy va adabiy uslub elementlarini o‘zida mujassam etishi inobatga olinsa, چانچلاب shaklini gazeta tiliga xos shakl sifatida talqin etish maqsadga muvofiq. Gazeta matnlari tahlili jarayonida چانچلاب asosan diniy mavzudagi sahifalar tarkibida uchrashi, din ulamolari nutqida keng foydalanish holatlari aniqlandi.

(ع) گل بب جهان اسلام از خداوند تعالیٰ مسئلت دارم

Men islom olamiga Allohdan iltijo qilib qolaman...

Tahlillar natijasida gazeta matnlarida ҳам kishilik olmoshining nofaol ekanligi, asosan ko‘chirma gaplarda qo‘llanishi aniqlandi. Sport sahifasida ҳам olmoshining yuqori darajada qo‘llanish sababi o‘rganilganda, eron gazetalarining sport sahifalari, asosan, sportchilar va murabbiylar bilan intervylarda aks etadi. Intervylarda savolga javob berish jarayonida ҳам olmoshi keng qo‘llanishi ma’lum bo‘ldi.

وی او va u olmoshlari fors tilida sinonim sanalib, har ikkalasining ma'no ifodalash imkoniyati bir xil. Lekin bu ikki olmoshning stilistik imkoniyatlari bir-biridan farq qiladi. او olmoshi universal sanalib, barcha uslublarda qo'llanishi mumkin. Lekin uning ishlatilishi asosan og'zaki va me'yoriy tilga xos. Gazeta matnlarida او olmoshiga sinonim ravishda وی olmoshining ishlatilishi sermahsul sanaladi. Fors tili gazeta matnlarida rahbar, prezident, yuqori mansabdar va ruhoniylar haqida so'z ketganda, ehtirom ma'nosini yanada kuchaytirib ko'rsatish معظمه ربى معظم قام ناقلاب معظم ربى قلائد مرجع maqsadida ularni ifodalash uchun بزرگ عالم طن له kabibi shakllar qo'llaniladi.

منطقه شرقی شیعیانی دارد که از محلی جهات محرومند و بنی عالم بزرگ‌تلکی داشت‌بسط محدود است از طبق میرجی‌دهشود (25,8).

Sharqiy mintaqada ko'p narsadan mahrum shialar yashaydi, ular bu mintaqadagi muammolarga barham berish lozimligini ta'kidladilar.

↳ biz olmoshi va uning ↳ qo'shimchasini olgan ↳ shakli 1-shaxs ko'plik ma'nosidan tashqari kamtarlik, mag'rurlik, takabburlik, manmanlik kabi semantik-stilistik ma'nolarni ifodalaydi. ↳ gazeta matnlarida faol qo'llanuvchi olmosh turidan sanalib, gazetaning barcha janrlariga oid matnlarda qayd etiladi. Gazeta matnlarida ↳ olmoshining deyktik vazifasi nominativ vazifa bilan almashadi. Bunday hollarda ↳ olmoshi jamlovchi ot ma'nosini anglatib keladi.

شما siz tinglovchining birdan ortiqligini ifodalash bu olmosh grammatik ma'nosi hisoblanadi. Hozirgi fors tilida bu olmoshning yoshi katta kishiga nisbatan qo'llanishi me'yorlashgan. Shuning uchun ham ko'plikni ifodalashga ehtiyoj sezilganda uning شما شما shakliga murojaat qilinadi. Gazeta matlarida olmoshi intervyyu jarayonida savol beruvchi tomonidan ko'p foydalanildi.

بفرازی موضع راه پردازی قطار شمری اصلا در بنامه اکاری شما وجود دارد؟

Aytingchi, shahar ichida qatnovchi poezdlarni yo'lgan qo'yish masalasi sizning dasturingizdan joy olganmi?

olmoshi davlat rahbarlari nutqida murojaat sifatida keng qo'llanadi.

هر آنچه ما دایم از لطف حق است و تلاش شما ملت

Nimaga erishgan bo'lsak, yaratganning marhamati hamda sizning sa'y-harakatlarining tufaylidir.

عالى سىكىار ھىنكار olmoshining yuqori uslubga xos شما shakllari rasmiy xarakaterga ega matnlarda qo'llanishi ularning uslubiy imkoniyatlarini namoyon etadi.

از جناب عالی و هیئت ملکره و شخص و فیر محترم و مهندس لارڈ کارانتشکر هکنام

Siz va muzokara a'zolariga, muhtaram vazir va barcha ishtirokchilarga o'z minnatdorligimni bildiraman.

ular gazeta matnlarida faol qo'llanuvchi olmoshlar sanaladi. Fors tilida 3-shaxs ko'plikni ifodalovchi kishilik olmoshi ham mavjud. Bu olmoshning olmoshidan farqi, asosan hurmat ma'nosini anglatib, ko'plikka nisbatan emas, birlikka nisbatan qo'llanadi. Bu olmoshning gazeta matnlarida ishlatalishi faol sanaladi.

(25,6) . بیان بایشان خاطرنگان اینجا نیستند.

Ular bu masala yuzasidan ta'kidladilar....

Fors tili gazeta matnlarida so‘roq olmoshlarining qo‘llanishi boshqa olmosh turlariga nisbatan nofaol. Albatta bu nofaollik gazeta matnlari orqali yetkazilgan xabarda aniqlik talab etilishi bilan izohlanadi. So‘roq olmoshlari qatnashgan matnlarda esa qaysidir ma’noda noaniqlik seziladi. Kuzatuvlar gazeta matnlarida so‘roq olmoshlari asosan muallifning o‘zi savol berib, ba’zan o‘zi javob qaytarishi uslubi qo‘llangan bayonda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi.

Gumon ma'nosidagi olmoshlarning faol emasligi gazeta-publisistik uslubdagi aniqlikka moyillikning kuchliligi, bunga gumon olmoshlari xalaqit berishi bilan izohlanadi. Lekin shunga qaramay, gumon olmoshlarining gazeta matnlarida qo'llanishi kuzatiladi. Gazeta-publisistik uslubga xos bo'lgan aniqlikka moyillik ularning faol ishlatalishiga monelik qilmaydi.

(25,11) کرد لطفاً هفت حرم مالکیت بدهی را را شرکت بنده آموخته از زاین از پس

Shundan so'ng Amerika bir nechta Eron kompaniyalarini sanksiya ro 'yxatiga qo'shib qo'ydi.

Oxirgi vaqtarda gazeta matnlari tarkibida sonlarning qo'llanish holatlari ko'payib borayotganini ko'p olimlar ta'kidlaganlar (14, 47). Publitsistik uslubda sonning uslubiy xususiyatlari namoyon bo'lishi nofaol, funksional xususiyatlari esa faolligini kuzatish mumkin. Gazeta matnlarida son o'zning birlamchi, ya'ni aniq, obyektiv axborotni yetkazish bilan bir qatorda, ekspressiv vazifani ham bajaradi.

Eron gazetalarida son so‘z turkumining qo‘llanishi tahlil etilganda bu so‘z turkumining barcha sahifalar, ayniqsa, iqtisod va sport sahifasida keng qo‘llanishi ma‘lum bo‘ldi. Sport jurnalistikasida son so‘z turkumining o‘rnii o‘ziga xos. Unda ochko, gol, sekund va h.k.lar haqida ma‘lumot beruvchi xabarlarda o‘ziga xos stilistik vazifani bajaradi. Yangi sport rekordi haqidagi qisqa xabarda son so‘z turkumi ustunlik qilsa, intervyu yoki ocherkdada ikkinchi darajali o‘ringa tushib qoladi.

Eron gazetalarida son so‘z turkumi ham son orqali, ham so‘z orqali ifodalanadi. Bundan tashqari, aralash ifodalananish holatlari ham mavjudligining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

س رهی اند هزار ۱۰۰ هزار) ریالت و گونی کاری از نهاد صادی، رش دصد دری ک مر
(25,10) ملت گزاری

Iqtisodiy o'sishning har bir foizi uchun bir trillion riyol (yuz ming milliard

tumon) sarmoya zarur. Bunday holatlardan asosan katta miqdorni ifodalashda foydalaniladi. Ushbu ifoda usuli ma'lumotni qabul qilishni osonlashtiradi.

Vaqt ko'rsatkichi zamонавиъ hayotni aks ettiruvchi gazeta matning ajralmas qismi hisoblanadi. Eron gazeta matnlarida xronometrajga alohida e'tibor qaratiladi, chunki ularning asosiy qismi xabar va yangiliklardan iborat. "Vaqt" tematik guruhida vaqt o'lchovi uchun دفعه daqiqा, ساعت soat, روز kun, هفته haftа, ۱۰ ماه oy, سال yil kabi so'zlar qo'llanadi, lekin ularning ishlatilish doirasi chegaralangani kuzatiladi.

“yil” so‘zi son bilan birikib, yil hisobini anglatib kelgan birikmalar gazetaning deyarli barcha sahifalarida faol qo'llanadi. Masalan, siyosiy sahifada biror siyosiy muzokara yoki uchrashuv vaqt, biror siyosiy jarayonlar vaqt, siyosiy kelishuvlar sanasini ifodalashga xizmat qiladi. Sport sahifasida esa biror sport musobaqasi o'tkaziladigan vaqtini ifodalab keladi. Iqtisod sahifasida muayyan anjuman bo'lib o'tgan payt yoki iqtisodiy jarayon vaqtini ifodalashga xizmat qiladi. Ma'lumki, Eronda hijriy yil hisobi yuritiladi. Gazeta matnlarida mamlakatning ichki hayotiga oid materiallar yoritilgan maqolalarda hijriy yil hisobi, xalqaro maydonda yuz bergan voqealarni yoritishda melodiy yil hisobidan foydalaniladi. Hijriy yil hisobi ifodalanganda aksar holatlarda yil to'liq emas qisqartirilgan shaklda beriladi. Bu ham gazeta matnlarida sonlarning ifodalanishida o'ziga xos uslubiy jihat sanaladi.

ندخ از جي ش ٩٥ سال در کارگران دست مردم دفلزليش گفت اجتماعي فاه و کارت عون، و فر (25,4) بود خواه مدت و رم

Mehnat va ijtimoiy ta'minot vaziri to'qson beshinchи yilda ishchilar ish haqining oshishi inflyasiya darajasidan yuqoriroq bo'lishini aytdi

"Vaqt" tematik guruhiga oid birikmalarning gazeta matnlarida qo'llanishi uning informatsion vazifasini namoyon qilishga xizmat qiladi. Gazetada qo'llanuvchi vaqtini anglatgan birikmalar aksariyat hollarda uzoq tarixni emas, yaqin o'tmishni ifodalandaydi.

Vaqtini ifodalash kundalik gazetaning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lishiga qaramay, pul miqdori ifodalanishi ham gazeta matnlarida asosiy o'rinxlardan birini egallaydi. Buni hozirgi kunda iqtisodiyotning rivojlanib borishi bilan asoslash mumkin. Gazeta matnlarida son pul hisobini ifodalashda qiymat (pul) hisobi uchun ishlatiladigan so'zlar bilan birikib keladi. Hayotning turli tarmoqlarini pul orqali hisoblash qaysidir ma'noda "iqtisodiy psixologiya" jihatlaridan birini namoyon etadi. Gazeta matnlariga turli mablag' miqdori kiritilishi, shu bilan birga, turli vaqt oralig'ida harajat va foyda ko'rsatkichlarini taqqoslashga imkon yaratuvchi mablag'larning foizli ko'rsatkichiga axborotning umumiyy tijoratlashtiruvi belgisi sifatida qaralishi mumkin (11,50). Gazeta matnlarida pul hisobini keltirishda aniqlikka to'la rioya etish kerak, aks holda, berilayotgan ma'lumot iqtisodiy abstraksiyaga aylanib qoladi.

Gazeta matnlarida son o'lchov birligini bildiruvchi so'zlar bilan birikib keladi. O'lchov guruhiga uzunlik, masofa, vazn, hajm va h.k. kiradi. Gazeta matnida o'lchov insonning dunyonи tadqiq etish, uni o'lchanadigan obyekt foiz ko'rsatkichi ekanligi aniqlandi.

Zamonaviy gazeta aniq faktlarga asoslangan, o'quvchiga haqqoniy ma'lumot berishga qaratilgan maqolalar bilan xarakterlanadi. Lekin hozirgi kun qisqalik va aniqlikni talab qilmoqda. Shundan kelib chiqib, oxirgi yillarda sonlar qatnashgan ma'lumotlarni infografika orqali ifodalash rivojlanmoqda. Hatto infografika jurnalistikating yangi janri sifatida talqin qilinmoqda. Infografika diagramma, grafika, jadval, histogramma, shkala kabilarni o'z ichiga oladi. Ma'lumotni yuqorida sanab o'tilgan vositalar orqali yetkazish katta hajmdagi xabarni tez fursatda qabul qilishni ta'minlaydi. Eron gazetalarida infografika

asosan statistik xarakterdagi maqolalarda keng qo'llaniladi. Quruq statistik ma'lumotni qamrab olgan maqola o'quvchi uchun u darajada qiziqish uyg'otmasligi mumkin. Lekin infografika orqali ifodalangan ma'lumot qiziqrarli, ko'pchilikni o'ziga jalb qilish xususiyatiga ega. Shu bilan birga, infografika ommaviy axborot vositalarida ma'lumot yetkazishning engsamarali usullaridan ekanligi, keljakda bu yo'nalishni yanada rivojlantirish zarurati borligidan dalolat beradi.

Fors tilida gazeta matni bayonida zamon shakllarining barchasi ishtirok etadi. Lekin gazetaning informativ vazifasi inobatga olinsa, unda fe'l o'tgan zamon shakllarining qo'llanishi mahsuldar hisoblanadi. Shu bilan birga, gazeta matnlarida ifodalanuvchi keng planlilik bois hozirgi va kelasi zamon shakllarining qo'llanishi ham kuzatiladi.

Fors tili gazeta matnlarida hozirgi zamonning qo'llanishi orqali ifodalanishi gazeta uslubining o'ziga xos jihat sanalib, hozirgi zamonning bunday birikmalar orqali ifodalanishi matnga rasmiylik va yuqori uslub ruhini bag'ishlaydi. Masalan,

مهمکنى دور جاركىردىفعال حال در ھەلەسى اي بە خاورھەلەكىرى دورتاص البراي ئىران مەلىت اىھەن طقە (25,2)

Eron O'rta Sharq koridorini O'rta Osiyoga birlashtirish uchun to'rt muhim mintaqaviy koridorni yo'lga qo'ymoqda jumlasini me'yoriy til grammatik qoidasi bo'yicha shakllantirilsa, jumla tarkibida kelgan حال در ھەلەسى اي بە خاورھەلەكىرى دورتاص البراي ئىران مەلىت اىھەن طقە مەمكىنى دور شاكلىدا ھەنىد فعاعل را نەطقە مەمكىنى دور جاركىردىفعال ھەلەسى اي بە خاورھەلەكىرى دورتاص البراي ئىران bo'lardi. Lekin gazeta matnlarining uslubi hozirgi zamonni ifodalashda ana shunday birikmalarni qo'llashni taqozo etadi.

Gazeta matnlarida o'tgan zamon fe'llarinining asosan xabar berish funksiyasi namoyon bo'ladi. Aniq o'tgan zamon fe'li mamlakatda yuz bergen siyosi, harbiy, ijtimoiy voqealar, davlat rahbarlari safarları, tabiiy ofatlar, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, sport musobaqlari va h.k. haqida ma'lumot keltirilgan maqolalarda qo'llanadi. Gazeta matnlarida o'tgan zamon ma'nosini hozirgi kelasi zamon fe'l shakllari bilan ifodalash ularga o'ziga xos uslubiy bo'yoqdotlik bag'ishlaydi. Gazeta matnlarida o'tgan zamon natijali fe'li qo'llanish darajasining balandligi uning grammatik funksiyasi bilan chambarchas bog'liq. Faqat ish-harakatning bajarilgani haqida ma'lumot beruvchi aniq o'tgan zamondan farqli o'laroq, o'tgan zamon natijali fe'li nafaqat ish-harakatning bajarilishi, balki nutq momentiga nisbatan munosabatga ham e'tiborni qaratadi. Asosan ma'ruzalar, xisobot shaklidagi maqolalarda kuzatiladi.

Fe'l mayllari shakllarining gazeta matnlarida qo'llanishi chegaralangan bo'lib, ularda fe'llar, asosan, anqlik mayli shaklida bo'ladi. Gazeta matnlarida buyruq maylining qo'llanishi bu uslubga xos jihat bo'lmasa-da, ba'zan buyruq mayli ishlatilgan holatlar uchraydi. Bunday hollarda buyruq mayli o'quvchilar e'tiborini kuchaytirish vositasi vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, buyruq mayli davlat rahbarlari nutqi ifodalangan matnlarda xalqqa murojaat, ularni biror ishga chorlash, e'tiborni qaratish kabi o'rinnlarda ishlatiladi.

(بىلەپتەر ھەگران از را خود كىرىدىق ئەپلەن كىرىدىق سەپەن مەدام 25,3)
Doimo o'zingizni boshqalar bilan solishtirishga urinmang va o'zingizni boshqalardan ustun deb hisoblamang.

Publitsistik uslubda majhul nisbatning qo'llanishi ko'proq kuzatiladi. Gazeta matnlarida qo'shma fe'llarning majhul nisbatini ifodalashda fe'lidan keng foydalish bu uslubga xos jihatlardan biridir.

شۇد مىبىچىۋەپلەك سەپەن از لەپلەن بىرلەپ دىشىد شۇد، پىرداختاڭر آن رىيال ئەپلەناردىد 85 (25,12)

Agar uning 85 milliard riyol to'lovi amalga oshirilsa, to'lov kechiktirilishi

bank tomonidan kechiriladi.

Fors tilida ko‘p fe’llarning yuqori uslubdagi variantlari mavjud. Gazeta matnlari rasmiy xabarlar, davlat rahbarlari ma’ruzalari va h.k.larni o‘z ichiga olgani bois ularning tarkibida yuqori uslubga oid fe’llarning keng qo‘llanishi gazeta tilining o‘ziga xos jihatni sanaladi. Fors tilida gazeta matnlarida rasmiylikni ifodalovchi fe’llarning ishlatilishida bir qator o‘ziga xos jihatlar ajratiladi. Fors tilida rasmiylik va hurmat ekspressiyasini berish uchun ma’lum fe’llar qo‘llanadi:

ساختن، آوردن تشقیف o‘rniga o‘rniga فتنن فرموندن، گفتنهن نمودن Qo‘shma fe'l tarkibidagi fe'li o‘rniga har doim fe'lini qo‘llash mumkin. Bunday hollarda fe'l qo‘shma fe'lga yuqori uslub ottenkasini beradi. Gazeta matnlarida fe'li o‘rniga fe'l o‘rniga گرفتهن شدن نمودن fe'li o‘rniga fe'li گرفتهن fe'lining ishlatilishi publisistik uslubga xos jihatlardan hisoblanadi.

Tahlillar natijasida fors tili gazeta matnlarida qo‘shma fe’llarning distant holatda qo‘llanish faolligi ma’lum bo‘ldi. Gazeta matnlarida qo‘shma fe’llarning distant holatda qo‘llanishi rasmiylikni saqlab qolish, gazeta matnlariga yuqori uslub ottenkasini berish usuli sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda چوپ داشتن سینگي شدن مجبور داشتن رفاه از شدن وارد شدن دعوت، رسئلن آسیب گوتن تصھم کردن fe'llar qo‘llanadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, gazeta matnlarida qo‘llash gazeta uslubining o‘ziga xos xususiyatini namoyon qiladi.

به و داچبررسی قرار و بحث مورد راسیسی جرم طرحکایات ادامه، در مجلس‌نامه‌گان (رسانیده‌شده) (25,7)

Deputatlar siyosiy jinoyat haqidagi qonun loyihasini muhokama qilib, tasdiqladilar.

Fors tili gazeta matnlarida fe'lning barcha semantik guruhlari qo‘llanadi. Lekin, tadqiqotning mazkur bo‘limida nutq fe'llarining gazeta matnlarida qo‘llanishida o‘ziga xos xususiyatlari tahlilga tortildi. Binobarin, nutq fe'llari barcha tillarda bo‘lgani kabi fors tilida ham axborot yetkazishda faol qo‘llanuvchi vositalardan biri sanaladi.

Axborot matni muhim voqealar haqida xabar berib, ma’lumotni operativ ravishda yetkazib berishga yo‘naltirilgani uchun fe’llarning faol qo‘llanishini taqozo etadi. Axborot matnlarida fe'l semantikasi o‘ziga xos xususiyat kasb etadi. Unda axborot, ta’kid va tasdiq ma’nosiga ega nutq fe'llari asosiy o‘rinni egallaydi. To‘plangan materallar tahlili davomida eron gazeta matnlarida faol qo‘llanuvchi فلزروden گفتنهن qo‘shimcha qilmoq، داشتن تکیه ta‘kidlamoq، داشتن تکیه izohlamoq، دادن توضیح Davom etmoq، دادن ادامه davom etmoq، داشتن بیان bayon qilmoq kabi nutq fe'llari aniqlandi.

Nutq fe'llari gazeta matnlarida axborot berish funksiyasini bajarib, “axborot berish” semasi ostida birlashadi. Leksik semantik maydonning asosini گفتنهن ‘li tashkil etadi. Gazeta matnlarida nutq fe'llarining qo‘llanishidagi o‘ziga xoslik shundaki, unda turli fe'llar bir ma’noda qo‘llanishi mumkin. Masalan, جواب javob bermoq va گفتنهن aytmoq bir ma’noda demoq, aytmoq ma’nosida qo‘llanishi mumkin. Gazeta matnlarida qo‘llangan nutq fe'llari nafaqat ko‘chirma gap, balki oddiy gap tarkibida ham keng qo‘llanishi kuzatiladi. Nutq fe'llarining leksik-semantik tahlili natjisida ular asosiy semasi nutqni amalga oshirmoq bo‘lgan faktlar haqida axborot bermoq, biron narsa bilan bog‘liq fikrni bildirmoq, biron narsa haqida guvohlik bermoq, biron narsaga ishora qilmoq kabi ma’nolarda qo‘llanadi. Nutq fe'llarining asosiy xususiyati, xabar bermoq ma’nosini ifodalashdir.

Gazeta matnlarida اعلام کردن اظهار fe'llari nafaqat ma’lum narsa haqida axborot berish, balki ma’lum rasmiy shaxsnинг so‘zlarida ifodalangan

nutq jarayoni kuchi va yo‘nalishini ifodalaydi:

اش اره طiran به جمله اختیال از اس ربطی مقامات که هنوز تبار او لعن طن کرد اظهار لاورف
قبلیل خبر عویض از مجمل و جدی اشتباهی که هتولید امر طن - اس-ت-م-ع-ل-و-م طن در ما هوضع بیان نکرده
[شود بینجای پیش S.R.3904:4]

Lavrovning ta'kidlashicha, Isroiil rasmiyalarining Eronga hujum qilish ehtimoli haqida xabarlari birinchi bor emas. Bu masala bizning pozitsiyamiz yaxshi ma'lum. Bu jiddiy xatodir, chunki u kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Eron gazeta matnlarida xabar, muloqot, ta'sir, murojaat hamda nutq faoliyati kabi leksik-semantik guruhiga oid nutq fe'llari qo'llanadi. Mazkur leksik-semantik guruh fe'llari turli nutq vaziyatlarida voqyelansa-da, ba'zilarining rasmiy boshqalarining esa norasimy vaziyatda qo'llanish faolligi aniqlandi. Masalan, rasmiy nutq vaziyatida asosan xabar leksik-semantik guruhiga oid fe'llar faol bo'lsa, nutq faoliyati leksik-semantik guruhiga doir fe'llar nofaol qo'llanishi kuzatiladi. Buni adresatga biror axborotni yetkazish rasmiy muloqotning bosh vazifasi sanalishi bilan asoslash mumkin.

V.Kostomarov fikricha, ekspressiya va standart uslubning konstruktiv prinsipi hisoblanadi (5,65). Standartlashtirish uslubning konstruktiv prinsiplaridan biri sifatida qabul qilinsa axborotning tez uzatilishini ta'minlaydi, vaqtin tejash, voqeа-hodisalarga operativ tarzda javob qaytarishni ta'minlab, uslubning neytral fonini vujudga keltiradi. Shu bilan birga, bu ma'lum qoliplarning vujudga kelishiga ham turtki berishi mumkin. Eron gazeta tilining o'ziga xos xususiyatlaridan biri biror shaxs nutqi yoki fikri ifodalangan maqolada har bir jumla ma'lum qolipdag'i fe'l shakllari bilan boshlanadi. Bunda asosan گفت شدی ادوار کرد خاطن‌شان dedi *ta'kidladi*, *qo'shimcha qildi*, داشتلىكىد داشتلىكىد *eslatib o'tdi*, داد ادامه *izoh berdi*, داشتىضىح *davom etdi*, *izhor etdi*, داشتىجان *bayon qildi* kabi fe'llar qo'llanadi.

Umuman, fe'llarning gazeta matnlarida qo'llanishini o'rganish orqali, uning gazeta-publisistik uslubidagi semantik va uslubiy imkoniyatlari namoyon bo'ladi. Bu imkoniyatlarning namoyon bo'lishida fe'lning nisbat, zamon, mayl va shaxs-son kategoriyalari muhim ahamiyatga ega.

Xulosasi. To'plangan faktik material tahlili — gazeta-publisistik uslubning asosiy xususiyati sifatida uning formatsion va tashviqot funksiyasini bajarishga yo'naltirilgani, me'yoriy tilda mavjud aksariyat leksik-grammatik birliklarning ishtiroti natijasida ulardagi uslubiy xususiyatlar namoyon bo'lib, mazkur uslubga xoslanish amalga oshishi hamda ma'lum darajada badiiy, rasmiy va ilmiy uslubga

xos vositalar qo'llanishi kabi jihatlar ajratilishini belgilab berdi.

Fors tili gazeta matnlarining quyidagi xususiyatlari aniqlandi:

- gazeta matnlarida xabarlarni yetkazishda aniqlik, qisqalik, mantiq, mufassallik kabi xususiyatlar talab etiladi;
- gazeta matnlariga tezkorlik xos bo'lib, qisqa vaqt oralig'ida dolzarb mavzular yoritiladi;
- gazeta matnlari boshqa matnlarga nisbatan keng ommaga mo'ljallangan;
- gazeta matnlarida informativlikning yuqoriligi, ta'sirning kuchli bo'lishiga e'tibor qaratiladi.

Eron gazeta matnlarining o'ziga xos jihatni ularda rasmiylik belgisi kuchliligi bilan belgilanadi. Gazeta matnlarida йўл ко'plik qo'shimchasining faol qo'llanishi, kishilik olmoshlari ham mana shu rasmiylikni saqlab qolish uchun xizmat qiladi. Gazeta matnlaridagi rasmiylik belgisi asosan fe'lning rasmiy shakllari, majhul nisbat va distant holati orqali namoyon bo'ladi.

Tahlillar natijasi gazeta matnlarida ot so'z turkumining boshqa so'z turkumlarga nisbatan keng funksional-uslubiy imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Lekin ot so'z turkumiga kiradigan ba'zi grammatik shakllarda funksional chegaralanish sezilmaydi. Buni ko'plik kategoriyasi misolida ko'rish mumkin.

Gazeta matnlarida qo'llangan ot va sifatlarning aksariyati boshqa uslublarda ham ishlataladi. Biroq ot va sifatlarning aynan gazeta matnlari tarkibida semantik-uslubiy ma'nolari kengayish holati aniqlandi. Shu bilan birga, ko'p ma'noli ot va sifatlar gazeta matnida aynan bir ma'noda qo'llanib, publitsistik uslubga xoslanganlik xususiyatiga ega bo'ladi. Eron gazeta matnlarida qo'llangan ot va sifat so'z turkumlariga oid aksariyat leksik birliklar milliy spetsifikasi - Eronning davlat tuzilishi, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat, milliy mentalitetning o'ziga xos xususiyatlari va h.k. ta'sirida shakllangan.

Sifatlarning kommunikativ va ekspressiv funksiyalari gazeta matnlarida biror voqe-hodisaga munosabat bildirishda namoyon bo'lishini alohida ta'kidlash lozim. Fors tili gazeta matnlarida tub sifatlarga nisbatan yasama sifatlarning qo'llanishi faol usullardan sanaladi. Gazeta-publitsistik uslubning asosiy vazifasi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy masalalarni yoritish, bunda esa shu sohaga mos leksikani qo'llashni taqozo etadi. Yasama sifatlarning salmoqli ulushi mana shu masalalarni yoritishda qo'llanuvchi otlarning belgisini anglatadi. Old qo'shimchalar bilan yasalgan sifatlar ichida ҳақиқат инкор yuklamasi ishtirokida yasalgan so'zlar tarkibidagi ҳақиқат yuklamasida publitsistik uslubga aloqador chegaralanganlik seziladi.

Gazeta matnlarida olmoshlarning uslubiy xususiyatlari yaqqol namoyon bo'lib, ҳар кishilik olmoshining ҳақиқат shaklida qo'llanib, turli uslubiy ma'no nozikliklarini ifodalash imkoniyati orqali ham ko'rindi. Gazeta matnlarida ҳар kishilik olmoshi o'rnida ba'zan ғулжан о'lanishi mumkin. So'roq olmoshlarida uslublararo umumiylit mavjud. Gazeta matnlarida olmoshlarning qo'llanishidagi o'ziga xos jihatlar uning uslubiy imkoniyatlarini aniqlab beradi. Gazeta-publitsistik uslub spetsifikasining namoyon bo'lishida olmoshlarning alohida o'ringa egaligi so'roq olmoshlardan tanqidiy mavzudagi maqolalarda foydalishda ko'rinsa, bo'lishsizlik va gumon olmoshlarining nofaolligi aniqlikka intilish bilan asoslanadi.

Sonlarda ot va sifat so'z turkumlari kabi publitsistik uslubga xos belgilar ko'p bo'lmasa-da, emotsiyal-ekspressiv bo'yoq va ma'noni namoyon etishi uchun mavjud xususiyatlarning o'zi ham gazeta matnida yetarli darajada xizmat qila olishi aniqlandi. Son so'z turkumi gazeta matnlarida muhim vazifani

bajaradi. Ular berilayotgan ma'lumotning aniqligini ta'minlash bilan bir qatorda, ma'lum ma'noda o'quvchiga ta'sir qilish, unda tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan baholovchi munosabat shakllanishida xizmat qiladi. Son gazeta matnlarining doimiy va o'zgarmas qatnashchisi sifatida, ularning o'ziga xos uslubiy koloritini yaratishda muhim o'ringa ega. Son gazeta matnlarida ma'lumotning aniq yetkazilishida asosiy omil vazifasini bajaradi. Gazetalar ko'rib qabul qilishga mo'ljallangani sabab, ularda berilgan 10 gacha bo'lgan sonlar raqamlar bilan, 10dan yuqori bo'lgan sonlar harflar orqali ifodalandi. Bu ma'lumotni yanada yaxshiroq, aniq, yengil qabul qilishni ta'minlaydi.

Fe'l so'z turkumi boshqa so'z turkumlariga nisbatan gazeta matnlarining tayanch qismi bo'lib, uning grammatik o'tgan zamon shakllari, majhul nisbati, rasmiy shakllari, distant holati kabi kategoriyalari bu so'z turkumining gazeta-publisistik uslubda uslubiy xususiyatlarini namoyon etuvchi asosiy vositalar sanaladi. Gazeta matnlarida zamon shakllarining barchasi qatnashadi, ammo asosan ular bo'lib o'tgan voqealar tafsilotiga yo'naltirilgani hisobiga fe'lning o'tgan zamon shakllari faol hisoblanadi. Gazeta-publisistik uslubda mayl formalarining qo'llanishi chegaralangan bo'lib, asosan fe'llar anqlik mayli shaklida bo'ladi, buyruq maylining qo'llanishi esa bu uslubga xos jihat hisoblanmaydi. Gazeta-publisistik uslubda fe'lning barcha nisbat formalari ishlataladi, ammo bu uslub majhul nisbatdagi fe'llar faolligi bilan ajralib turadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Аббасогли А. Язык телевидения Ирана: Автореф. дис...канд. филол.наук. — М., 2008. — 24 с.
2. Гладкова Е.Л. Некоторые аспекты общественно-политической лексики современного персидского языка (на материале выступлений М.Ахмадинежеда в ООН) // Иран при М.Ахмадинежаде. Памяти А.З.Арабаджяна. — М.: ИВ РАН, Центр стратегической конъюнктуры, 2013. — С. 182-190.
3. Горшков А.И. Русская стилистика. Стилистика текста и функциональная стилистика: учебник для педагогических университетов и гуманитарных вузов. — М.: Астрель, 2006. — 300 с.
4. Куранбеков А. Проблемы формирования научно-технической терминологии в современном персидском языке // Вопросы филологии. — М., 2003. — №2 (14). — С.17-23.
5. Костомаров В.Г. Лингвистический статус массовой коммуникации и проблема «Газетного языка»: (на материале советской прессы) // Психолингвистические проблемы массовой коммуникации. — М., 1974. — С.65-70.
6. Мехди Р. Особенности персоязычной печати Индии и ее роль в становлении иранской печати. Автореф. дис. канд. филол. наук. — Душанбе, 2014. — 24 с.
7. Mohammad Reza Esfandiari, Tengku Sepora Tengku Mahadi and Forough Rahimi "Textual Features of Persian Translational and Non-Translational Journalistic political news" World Applied Sciences Journal 19 (3): 345-351, 2012; Zahra Abazari. Content analysis of high circulation Persian Newspaper published in Iran from 2009 to 2012 Popularization of science; Biook Behnam & Robabeh Mostaghi Zenouz. A contrastive Critical Analysis of Iranian and British Newspaper Reports on the Iran Nuclear Power Program. Systemic Functional Linguistics in Use, OWPLC 29. 2008; Farzaneh Khodabandeh, Mobarakeh Payame. The Linguistics journal April 2007, Volume 2, Issue 1, pp. 91-127. A Contrastive Analysis of English and Persian Newspaper Headlines Noor University, Iran; Alireza Bonyadi and Moses Samuel. Headlines in Newspaper

- Editorials: A Contrastive Study. SAGE Open. April-June 2013: 1-10.
8. Муллоев Шариф. СМИ Ирана и Афганистана. Учебно-методическое пособие для студентов отделения «Журналистика». — Душанбе, 2011. — 56 с.
 9. Нахимова Е.А. Метафорические и метонимические значения топонимов в современных СМИ // Журналистика и массовые коммуникации. — 2009, № 3. — С.80-85.
 10. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. — М., 2001. — 600 с.
 11. Симакова С.И. Цифровые обозначения как элемент газетного текста (на примере «Челябинского рабочего»): дис. ... канд. филол. наук. — Челябинск, 2009. — 184 с.
 12. Сухоруков А.Н. Западные инициальные аббревиатуры в персидском языке в контексте борьбы за очищение языка. — М., 2015. — 77 с.
 13. Сухоруков А. Анализ лексики газеты «Иран» как показателя пуритических тенденций в современном персидском языке. Ученые записки Таврического национального университета им. В.И.Вернадского. Серия «Филология. Социальные коммуникации». Том 23 (62). № 3. — 2010 г. — С. 79-84.
 14. Тертычный А. А. Цифра — материя тонкая // Журналист. — 2006. № 1. — С.76-78; Шостак М.И. Репортер: профессионализм и этика. — М.: Изд-во им. Сабашниковых, 1999. — 192 с.
 15. Узина М.С. Социально-стилистическая дифференциация современного персидского языка (на материале формул вежливости). Автореф. дис... канд. филол. наук. — М., 1976. — 24 с.
 16. Күнгиров Р., Каримов С., Курбонов Т. Нутқ маданяти асослари. II қисм. — Самарқанд, 1986. — 146 б.
 17. نومنه ده : ادوارگران‌هلبرون، محمد بی‌اسنی‌خ‌مطبوعات و لیحات طران در دوره شرطیت سه‌جلد دری‌ک‌جلد(۱۸۶۲-۱۹۲۶) متب‌مران، تعداد صفحه ۶۷.
 18. ناصرالفنپرهون‌باخ روزنامه‌رگاری طران و هنگی‌بارسی‌نویسان ۳۶۷. ۱۳۹۰.
 19. عفري خاقاه، مهدی. دو قرن با مطبوعات فارسي زبان خارج از کشور در قاهره آسيا /- ت مران هن‌ازمان اسناد و کتابخانه ملی جمهوري اسلامي طران: وزارت فرهنگ و ارشاد اسلامي، مرکز طالعات و حقوق ارسله هایت مران، ۱۳۸۳. مسعود برغیز بهری در مطبوعات طران ت مران ۱۳۴۵، ۱۸۲ ص.
 20. جشن‌ملدنی‌بکپژوهی در زبان‌فلرسی. <http://farsi.blogfa.com>. محنت‌قیه‌هار ملک الشعرا بی‌سیک‌شناخت مران ۱۳۴۹ بلکسری‌روس‌شیوه‌سایان و معلیت مران ۱۹۹۵ بی‌کومرس کیوان سیوک‌شناختی زبان و شعفارسی بـ مران ۱۳۷۷ بلکفرفتوری سیوک‌شناختی بـ مران ۱۳۹۴ . مهدی‌بلقری پیشینه‌سیوک و بی‌سیک‌شناختی غمی در ارها و طران بـ مران ۱۳۹۰ . مهدی‌بلقری . پیشینه‌سیوک و بی‌سیک‌شناختی غمی در ارها و طران بـ مران ۱۳۹۰ .
 21. قتاچی‌جک‌کوشش‌فایده‌حقیقی. زبان روزنامه‌ت مران، ۱۳۸۸. طبیه فصوصی شاد. هنگی‌گی های زبان ملودی‌بمطبوعات - روپلط عمومی - بشماره ۸۳ - نیمر ۱۳۹۱ - ۱۹-۱۲. بکتر حسن‌ذوقی‌قاری‌آبه‌شناختی زبان‌مطبوعات و سلسله - بشماره ۴ - ۱۹۸۰ . - ۹-۴۲. بکتر حسن‌ذوقی‌قاری لگو های غیرمتعار در زبان‌مطبوعات بـ مران، ۱۳۸۵ دکتر حسن‌ذوقی‌قاری . الگو های غیرمتعار در زبان‌مطبوعات بـ مران، ۱۳۸۵ .
 22. احمد‌سیعی‌گیلانی. (زبان‌صدا و سیما و انحرفات آن - زبان و رساله - ۱۳۸۸. - ۱۱۷-۱۳۲).
 23. دکتر حسن‌ذوقی‌قاری‌الگو های غیرمتعار در زبان‌مطبوعات بـ مران، ۱۳۸۵ . ص. ۲۹.
 24. روزنامه جمهوری اسلامی. ۳۹۴ فلوریون ۵ بشماره ۱۰۲۷۸ . ص. ۶.

References

1. Abbasogli A. *Yazik televideniya Irana* (Iranian Television Language), Extended abstract of candidate's thesis, Moscow, 2008, 24 p.
2. Gladkova Ye.L. *Iran pri M.Axmadinejade. Pamyati A.Z.Arabadzhyana* (Iran under M. Ahmadinejad. In Memory of A.Z. Arabadzhyan.), Moscow: IV RAN, Sentr strategicheskoy kon'yunkturi, 2013, pp. 182-190.
3. Gorshkov A.I. *Russkaya stilistika. Stilistika teksta i funktsionalnaya stilistika* (Russian Style. Text Style and Functional Style), Moscow: Astrel, 2006, 300 p.
4. Kurambekov A. *Voprosi filologii*, Moscow, 2003, No. 2 (14), pp.17-23.
5. Kostomarov V.G. *Psixolingvisticheskie problemy massovoy kommunikatsii* (Psycholinguistic Problems of Mass Communication), Moscow, 1974, pp. 65-70.
6. Mexdi R. *Osobennosti persoyazichnoy pechatи Indii i yee rol v stanovlenii iranskoy pechatи* (Peculiarities of the Persian Language Press of India and its Role in the Formation of the Iranian Press), Extended abstract of candidate's thesis, Dushanbe, 2014, 24 p.
7. Mohammad Reza Esfandiari, Tengku Sepora Tengku Mahadi and Forough Rahimi "Textual Features of Persian Translational and Non-Translational Journalistic political news" World Applied Sciences Journal 19 (3): 345-351, 2012; Zahra Abazari. Content analysis of high circulation Persian Newspaper published in Iran from 2009 to 2012 Popularization of science; Biook Behnam & Robabeh Mostaghi Zenouz. A contrastive Critical Analysis of Iranian and British Newspaper Reports on the Iran Nuclear Power Program. Systemic Functional Linguistics in Use, OWPLC 29, 2008; Farzaneh Khodabandeh, Mobarakeh Payame. The Linguistics journal April 2007, Volume 2, Issue 1, pp. 91-127. A Contrastive Analysis of English and Persian Newspaper Headlines Noor University, Iran; Alireza Bonyadi and Moses Samuel. Headlines in Newspaper Editorials: A Contrastive Study. SAGE Open. Aprel-June 2013, 1-10.
8. Mulloev Sharif. *Smi Irana i Afganistana* (Media of Iran and Afghanistan), Dushanbe, 2011, 56 p.
9. Naximova Ye.A. *Jurnalistika i massovie kommunikatsii*, 2009, No. 3, pp.80-85.
- 10.Rubinchik Yu.A. *Grammatika sovremennoogo persidskogo literaturnogo yazika* (Grammar of Modern Persian Literary Language), Moscow, 2001, 600 p.
- 11.Simakova S.I. *Sifrovie oboznacheniya kak element gazetnogo teksta* (Cipher Designations as an Element of Newspaper Text), candidate's thesis, Chelyabinsk, 2009, 184 p.
- 12.Suxorukov A.N. *Zapadnie initsialnie abbreviaturi v persidskom yazike v kontekste borbi za ochishenie yazika* (Western Initial Abbreviations in Persian in the Context of the Struggle for the Purification of the Language.), Moscow, 2015, 77 s.
- 13.Suxorukov A. *Ucheniye zapiski Tavricheskogo nasionalnogo universiteta im. V.I.Vernadskogo. Seriya "Filologiya. Sosialniye komunikasii"*, Vol. 23 (62). No. 3, 2010, pp. 79-84.
- 14.Tertichniy A.A. *Jurnalist*, 2006. No. 1, pp.76-78; Shostak M.I. *Reporter: professionalizm i etika* (Reporter: Professionalism and Ethics), Moscow: Izd-vo im. Sabashnikovix, 1999, 192 p.
- 15.Uzina M.S. *Sosialno-stilisticheskaya differensiasiya sovremennoogo persidskogo yazika (na materiale formul vejlivosti)* (Socio-stylistic Differentiation of the Modern Persian Language (on the Basis of Politeness Formulas)), Extended abstract of candidate's thesis, Moscow, 1976, 24 p.
- 16.Qo'ngurov R., Karimov S., Qurbonov T. *Nutq madanyati asoslari* (Fundamentals of Speech Culture), part 2, Samarkand, 1986, 146 p.
- 17.Edward Grovel Braun, Mohammad Abbosi. *Tarix-e matbuat va adabiyat-e Iran dar doure-ye mashrute (se jeld dar yek jeld)*, Tehran, 1962

- 18.Naseriddin Parvin. Tarix-e ruznamenegari-ye Iraniyan va digar parsi navisan, Tehran, 1390 hejri.
- 19.Ja'fari Xanaqah. Do qarn ba matbuat-e farsizaban xarej az keshvar dar qare-ye Asiya, Tehran, 2383 hejri.
- 20.Doktor Shamisa. Bayan va ma'ani, Tehran, 1995, [44], Mehdi Baqeri, Pishine-ye sabk va sabkshenasi-ye elmi dar Orupa va Iran, Tehran, 1390 hejri.
- 21.Donate Reich be kushesh-e Farida Haqbin, Zaban-e ruzname, Tehran, 1377 hejri.
- 22.Ahmad Gilani. *Zaban va rasane*, 1388 hejri.
- 23.Doktor Hasan Zolfeqari. Alguha-ye geyr-e mayar dar zaban-e matbuat, Tehran, 1385 hejri.
- 24.Ruzname-ye jomhuri-ye eslami, Farvardin 1394, Šomare-ye 10301.